


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIVAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLIVAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLILIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODII MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODII ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODELI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI.....	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH.....	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH.....	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING.....	349
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI.....	375
Masharipova Maksuda Becnazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	
BILIMGA ASOSLANGAN AVTONOM AGENTLAR VA RAG TEXNOLOGIYALARI.....	387
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich	
EKSPORT SALOHIYATINI BAHOLASHDA QIYOSIY USTUNLIK (BALASSA) INDEKSIDAN FOYDALANISH.....	395
Olchinboyev Otabek Abdusamad o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KORPORATIV MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	399
Abduraxmonov Farrux Talipjanovich	
HUJUMLARNI ANIQLASH TIZIMLARIDA TAHDID MODELINI ISHLAB CHIQRISH.....	404
Barotova Zahro Akmaljon qizi	
G'ISHTNI QURITISH VA PISHIRISH JARAYONLARI.....	413
Askarov Xasanjon	
BUG' TURBINALI GENERATORLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TEXNIK YECHIMLARI.....	417
Xudoyqulov Zoki, Eshbekov Muxriddin	
EFFECTIVE WAYS TO USE DEVICES OPERATING IN A MECHATRONICS SYSTEM.....	421
Makhammaillo Aliboyev	
KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	427
Sharipova Aziza Faxriddin qizi	



UO'K: 331.5:338.46

KREATIV IQTISODIYOT VA GENDER INKLYUZIV RIVOJLANISH O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK: XALQARO TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Sharipova Aziza Faxriddin qizi

Uzbekistan Creative Association, Creative Startup Manager

E-mail: azifakhridinovna@gmail.com

Annotatsiya. Kreativ iqtisodiyotning ayollar bandligini ta'minlash va gender inklyuziv rivojlanishdagi o'rni tadqiq etilgan. UNCTAD, UNESCO, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlari asosida kreativ industriyalarning jahon iqtisodiyotidagi ulushi, ularda ayollar bandligining tarmoq tarkibi hamda gender tafovutlari tahlil qilingan. O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional-huquqiy asoslari va ayollar mehnat bozori ko'rsatkichlari o'rganilib, kreativ sektorning ayollar bandligini oshirishdagi salohiyati baholangan. Tadqiqot natijalari asosida kreativ iqtisodiyot orqali gender inklyuziv rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, kreativ industriyalar, ayollar bandligi, gender inklyuziv rivojlanish, gender tengligi, mehnat bozori, hunarmandchilik, o'zini o'zi band qilish, inklyuziv o'sish.

Аннотация. Исследована роль креативной экономики в обеспечении занятости женщин и гендерно-инклюзивного развития. На основе данных ЮНКТАД, ЮНЕСКО, Всемирного банка и Международной организации труда (МОТ) проанализированы доля креативных индустрий в мировой экономике, отраслевая структура занятости женщин в данном секторе, а также существующие гендерные различия. Изучены институционально-правовые основы развития креативной экономики в Узбекистане и показатели женской занятости на рынке труда, оценён потенциал креативного сектора в расширении возможностей трудоустройства женщин. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения, направленные на обеспечение гендерно-инклюзивного развития посредством креативной экономики.

Ключевые слова: креативная экономика, креативные индустрии, занятость женщин, гендерно-инклюзивное развитие, гендерное равенство, рынок труда, ремесленничество, самозанятость, инклюзивный рост.

Abstract. The role of the creative economy in promoting women's employment and gender-inclusive development is examined. Based on data from UNCTAD, UNESCO, the World Bank, and the International Labour Organization (ILO), the contribution of creative industries to the global economy, the sectoral structure of women's employment within these industries, and existing gender disparities are analyzed. The institutional and legal framework for the development of the creative economy in Uzbekistan, together with key indicators of women's participation in the labor market, is examined, and the potential of the creative sector to expand women's employment is assessed. Based on the research findings, scientific and practical recommendations aimed at promoting gender-inclusive development through the creative economy are proposed.

Keywords: creative economy, creative industries, women's employment, gender-inclusive development, gender equality, labor market, handicrafts, self-employment, inclusive growth.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida kreativ iqtisodiyot barqaror o'sishning yangi harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilmoqda. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, madaniy va kreativ industriyalar jahon yalpi ichki mahsulotining 3,1 foizini hamda jahon bandligining 6,2 foizini ta'minlab, yiliga 2 trillion AQSH dollaridan ortiq daromad yaratmoqda va qariyb 50 million ish o'rnini ta'minlamoqda [1]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan **2021-yilning "Barqaror rivojlanish uchun kreativ iqtisodiyot xalqaro yili"** deb e'lon qilinishi mazkur sektorning global rivojlanish kun tartibidagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Kreativ iqtisodiyotning o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ijtimoiy inklyuziyani, xususan, gender inklyuziv rivojlanishni ta'minlash uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Kreativ industriyalarda



kirish to'siqlarining nisbatan pastligi, mehnat shakllarining moslashuvchanligi hamda masofaviy va mustaqil bandlik imkoniyatlarining kengligi ayollar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi [2, 3].

O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktabrdadagi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-son¹ Qonun mamlakatda kreativ industriyalarni rivojlantirishning yaxlit institutsional-huquqiy asosini yaratdi [4]. Shu bilan birga, respublikada ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish, ularning mehnat bozoridagi ishtirokini kengaytirish hamda tadbirkorlik va innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda [5]. Kreativ iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymat yaratish xususiyati, intellektual salohiyat va innovatsion g'oyalarga tayanishi ayollar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur sharoitda kreativ iqtisodiyot va gender inklyuziv rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy jihatdan tahlil qilish, xalqaro tajribani O'zbekiston amaliyoti bilan qiyosiy baholash hamda kreativ sektorning ayollar bandligini oshirishdagi salohiyatini aniqlash alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, kreativ iqtisodiyotning gender inklyuziv rivojlanishni ta'minlashdagi o'rni va istiqbollari baholash tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi ilmiy muomalaga XXI asr boshida kiritilgan. J. Howkins o'zining *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas* (2001) asarida kreativ iqtisodiyotni g'oyalar asosida qiymat yaratuvchi faoliyat turlari majmui sifatida ta'riflab, ijodkorlikni iqtisodiy o'sishning mustaqil omili darajasiga ko'tardi [6]. R. Florida (2002) "kreativ sinf" konsepsiyasini ishlab chiqib, hududlarning raqobatbardoshligi ijodkor insonlarni jalb qilish qobiliyatiga bog'liqligini asoslab berdi [7]. Ch. Landry "kreativ shahar" yondashuvi orqali shahar rivojlanishida madaniy resurslardan foydalanish metodologiyasini taklif etgan bo'lsa [8], D. Throsby madaniyat iqtisodiyotining nazariy asoslarini tizimlashtirib, madaniy qiymat va iqtisodiy qiymat o'rtasidagi o'zaro munosabatni tahlil qildi [9].

Xalqaro tashkilotlar darajasida kreativ iqtisodiyot konsepsiyasi **2004-yildan** boshlab UNCTAD hujjatlarida rivojlantirildi. UNCTADning *Creative Economy Outlook* hisobotlari kreativ tovarlar va xizmatlar savdosining global monitoringini yo'lga qo'ygan bo'lib, **2024-yilgi** hisobotda ilk bor mamlakatlararo qiyosiy so'rov natijalari e'lon qilindi [3]. Gender yo'nalishida UNESCOning *ReShaping Policies for Creativity* (2022) hisoboti madaniy va kreativ sektorlardagi gender tengligini tizimli ravishda tahlil qilib, ayollarning munosib mehnat, adolatli mehnat haqi hamda rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish bilan bog'liq omillarni yoritib berdi [1]. Inklyuziv o'sish nazariyasi doirasida gender tengligi iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti sifatida qaraladi. Barcha aholi qatlamlarining iqtisodiy faoliyatda teng ishtirok etishi va uning natijalaridan teng manfaatdor bo'lishi inklyuziv o'sishning asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi [10].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ayollar bandligini ta'minlash, hududlar kesimida mehnat bozorini tahlil qilish hamda ayollar tadbirkorligini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyot va gender inklyuziv rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni milliy iqtisodiyot sharoitida yanada chuqurroq o'rganish ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni boyitishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy bilishning tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash, dinamik qatorlar tahlili hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini UNCTADning *Creative Economy Outlook 2024* hisoboti, UNESCO, Jahon banki va Xalqaro mehnat tashkiloti (ILOSTAT) ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari hamda milliy statistika ma'lumotlari tashkil etdi. Tahlil asosan **2020–2025-yillar** davrini qamrab oladi. Kreativ iqtisodiyot chegaralarini aniqlashda UNCTAD tasnifi (reklama, arxitektura, hunarmandchilik, dizayn, moda, kino, musiqa, nashriyot, dasturiy ta'minot, televideniye va boshqalar)ga tayanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativ iqtisodiyotning jahon iqtisodiyotidagi o'rni barqaror kengayib bormoqda. UNCTADning **2024-yilgi** global so'rovi natijalariga ko'ra, kreativ iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi mamlakatlar kesimida 0,5

1 O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-oktabrdadagi "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi O'RQ-970-son Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-7129258>



foizdan 7,3 foizgacha, bandlikdagi ulushi esa 0,5 foizdan 12,5 foizgacha o'zgaradi [3]. Kreativ xizmatlar eksporti tovarlar eksportiga nisbatan yuqori sur'atlarda o'smoqda, bu esa sektorning raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Kreativ xizmatlar tarkibida dasturiy ta'minot xizmatlari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari hamda reklama va arxitektura xizmatlari yetakchilik qilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Jahon kreativ xizmatlar eksportida yetakchi sektorlarning ulushi (2022-yil)²

№	Kreativ xizmatlar sektori	Ulushi, %
1	Dasturiy ta'minot xizmatlari	41,3
2	Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari	30,7
3	Reklama, marketing tadqiqotlari va arxitektura	15,5
4	Boshqa kreativ xizmatlar (audiovizual, madaniy va h.k.)	12,5

Kreativ iqtisodiyotning gender kesimidagi tahlili ushbu sektor ayollar bandligini kengaytirish uchun qulay imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi. Mamlakatlarning qariyb 60 foizida madaniy kasblarda band ayollarning ulushi madaniyatga oid bo'lmagan kasblardagiga nisbatan yuqori bo'lib, jahon kreativ sektori xodimlarining o'rtacha 42 foizini ayollar tashkil etadi [1]. Shu bilan birga, sektor ichidagi tarmoqlar kesimida ayrim farqlar kuzatiladi. Jumladan, nashriyot sohasida ayollar ulushi 61 foizga yetgani holda, interaktiv kontent va videoo'yinlar industriyasida bu ko'rsatkich 5–6 foizni tashkil etadi [1]. Mazkur holat kreativ sektorning ayrim yo'nalishlarida tarmoqlar kesimidagi ixtisoslashuv xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Vertikal segregatsiya, ya'ni ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish masalasi ham dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ayrim mamlakatlarda madaniyat tashkilotlarining boshqaruv lavozimlarida ayollar ulushi 25 foizdan oshmaydi, kino industriyasida esa ayollar ssenariychilarning 20 foizini, prodyuserlarning 19 foizini va rejissyorlarning 7 foizini tashkil etadi [1]. Shu bilan birga, ijobiy tendensiya sifatida **2020-yilga** kelib mamlakatlarning 77 foizi madaniy sektorda gender tengligini rag'batlantirishga qaratilgan siyosat va chora-tadbirlarga ega ekani qayd etilgan [1]. Demak, kreativ iqtisodiyot gender inklyuziv rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi va ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadli davlat siyosati hamda institutsional qo'llab-quvvatlashni talab etadi.

O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asoslari so'nggi yillarda izchil shakllantirildi. **“Kreativ iqtisodiyot to'g'risida”gi Qonun** bilan kreativ industriyalar parklari va klasterlari, raqamli platformalar, ta'lim dasturlari hamda art-rezidensiyalarni o'z ichiga olgan yagona ekotizimni yaratish, kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Respublika kengashini tashkil etish hamda kreativ loyihalarni moliyalashtirish jamg'armalarini tuzish nazarda tutilgan [4]. Amaliyotda ham sezilarli natijalar kuzatilmoqda. Jumladan, **“Hunarmand”** uyushmasi a'zolarining soni 28 mingdan oshdi, **2024-yilda** qo'lda tayyorlangan mahsulotlar eksporti 6,5 million AQSH dollarini tashkil etdi, o'zbek hunarmandchiligi mahsulotlariga jahon bozoridagi talab esa so'nggi sakkiz yil davomida 30 foizga oshdi [3, 11]. Hunarmandchilik, tikuvchilik, dizayn va raqamli kontent yaratish kabi yo'nalishlar an'anaviy ravishda ayollar faol ishtirok etadigan sohalar bo'lib, ularning rivojlanishi ayollar bandligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Ayni paytda O'zbekiston mehnat bozorida gender ko'rsatkichlarini yanada takomillashtirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda (2-jadval). Ayollar jami ishchi kuchining 35,4 foizini tashkil etadi. Ayollarning mehnat bozoridagi ishtirok darajasi erkaklarnikiga nisbatan 54,5 foizni tashkil etadi, bu esa ushbu yo'nalishda mavjud imkoniyatlarni yanada kengaytirish zarurligini ko'rsatadi [11]. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'rtacha ish haqi tafovuti 34 foizni tashkil etadi, jahon o'rtacha ko'rsatkichi esa 20 foizni tashkil etadi [5]. Ta'lim, bandlik va kasbiy tayyorgarlikdan tashqari (NEET) yoshlar ulushi ayollar orasida 19,1 foizni, erkaklar orasida esa 8,5 foizni tashkil etadi [10].

2-jadval. O'zbekistonda ayollar bandligining asosiy ko'rsatkichlari (2024–2025-yillar)³

№	Ko'rsatkich	Qiymati
1	Ayollarning jami ishchi kuchidagi ulushi	35,4 %
2	Ayollar va erkaklar mehnat bozoridagi ishtirok darajalari nisbati	54,5 %
3	Gender bo'yicha ish haqi farqi	34 %
4	NEET darajasi (ayollar / erkaklar)	19,1 % / 8,5 %
5	Ayollar bandligida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi	57,7 %
6	Ayollar bandligida qishloq xo'jaligining ulushi	27,0 %
7	Ro'yxatga olingan o'z-o'zini band qilganlar orasida ayollar ulushi	42 %

2 Manba: UNCTAD Creative Economy Outlook 2024 ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [3].

3 Manba: Jahon banki, ILOSTAT va Jahon bankining Gender ma'lumotlari portali ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan [5, 10, 11].

Jadval ma'lumotlari ikki muhim xulosani shakllantirish imkonini beradi. Birinchidan, ayollar bandligi asosan xizmat ko'rsatish (57,7 foiz) va qishloq xo'jaligi (27 foiz) sohalarida jamlangan bo'lib, mazkur yo'nalishlarda kreativ faoliyatni rivojlantirish uchun salmoqli imkoniyatlar mavjud. Ikkinchidan, ro'yxatga olingan o'zini o'zi band qilgan shaxslarning 42 foizini ayollar tashkil etishi ularning mustaqil va moslashuvchan mehnat shakllariga yuqori qiziqishini ko'rsatadi. Aynan shu xususiyat kreativ iqtisodiyotning ayollar bandligi uchun strategik ahamiyatini belgilaydi. Kreativ faoliyatning aksariyat turlari uy sharoitida yoki masofadan turib, moslashuvchan ish grafigi asosida amalga oshirilishi mumkinligi oilaviy majburiyatlar bilan bir qatorda iqtisodiy faollikni ham muvaffaqiyatli uyg'unlashtirish imkonini yaratadi.

Xalqaro tajriba va milliy ma'lumotlar tahlili kreativ iqtisodiyot hamda gender inklyuziv rivojlanish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning ikki tomonlama xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Bir tomondan, kreativ iqtisodiyotning rivojlanishi ayollar uchun yangi bandlik imkoniyatlarini yaratib, gender inklyuzivlikni yanada mustahkamlaydi. Ikkinchi tomondan, ayollarning ijodiy va intellektual salohiyatidan samarali foydalanish kreativ sektorning o'zi uchun ham muhim o'sish omili hisoblanadi. Natijada iste'dodlar bazasi kengayadi, mahsulot va xizmatlar xilma-xilligi ortadi hamda ichki bozor rivojlanishi orqali sektorning raqobatbardoshligi yuksaladi. Shu ma'noda, gender inklyuzivlik kreativ iqtisodiyot rivojlanishining nafaqat ijtimoiy natijasi, balki muhim iqtisodiy omili ham hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari kreativ iqtisodiyot ayollar bandligini oshirish hamda gender inklyuziv rivojlanishni ta'minlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Jahon tajribasi kreativ sektorda ayollar ishtiroki an'anaviy tarmoqlarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tarmoqlar va boshqaruv darajalari kesimida mavjud xususiyatlarni inobatga olgan holda, ayollarning iqtisodiy faolligini yanada kengaytirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda kreativ iqtisodiyotni rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilgan bo'lib, navbatdagi muhim vazifa ushbu mexanizmlarning gender inklyuzivligini yanada kuchaytirishdan iborat. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

kreativ iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari va kreativ industriyalar parklari faoliyatida ayollar uchun maxsus kvotalar, grantlar hamda imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarini nazarda tutish;

- milliy statistika tizimida kreativ iqtisodiyot bandligini gender kesimida hisobga olish metodologiyasini joriy etish hamda kreativ sektorda ayollar bandligining muntazam monitoringini yo'lga qo'yish;
- hududlarda, ayniqsa qishloq joylarda, ayollarga mo'ljallangan kreativ ko'nikmalar (dizayn, raqamli kontent, IT va hunarmandchilikni raqamlashtirish) bo'yicha ta'lim dasturlarini kengaytirish;
- ayollar tomonidan yaratilayotgan hunarmandchilik va kreativ mahsulotlarni xalqaro elektron savdo platformalari orqali eksport qilishni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma hamda logistika xizmatlarini rivojlantirish;
- kreativ sohada faoliyat yuritayotgan o'zini o'zi band qilgan ayollar uchun ijtimoiy himoya va soliq imtiyozlari tizimini takomillashtirish;
- kreativ industriyalarda ayollarning rahbarlik lavozimlaridagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qiluvchi mentorlik dasturlari hamda tarmoq hamjamiyatlarini shakllantirish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi kreativ iqtisodiyotning gender inklyuziv salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ayollar bandligi darajasini oshirish hamda inson kapitalini rivojlantirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Kelgusidagi tadqiqotlarda kreativ sektorda ayollar bandligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashirish hamda hududlar kesimidagi qiyosiy tahlillarni amalga oshirish istiqbolli ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO. *ReShaping Policies for Creativity: Addressing Culture as a Global Public Good*. – Paris : UNESCO, 2022. – URL: <https://www.unesco.org/creativity>.
2. UNCTAD. *Creative Economy Outlook 2024: Technical and Statistical Report*. – Geneva : United Nations, 2024. – URL: <https://unctad.org/publication/creative-economy-outlook-2024>.
3. O'zbekiston Respublikasining **«Kreativ iqtisodiyot to'g'risida»**gi Qonuni. 2024-yil 3-oktabr, O'RQ-970-son.
4. World Bank. *Uzbekistan Gender Assessment 2024*. – Washington, D.C. : World Bank, 2024. – URL: <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052824010040771/pdf/P1756961e2e00751b5811c750be72227c.pdf>.
5. Howkins J. *The Creative Economy: How People Make Money from Ideas*. – London : Penguin Books, 2001. – 288 p.
6. Florida R. *The Rise of the Creative Class*. – New York : Basic Books, 2002. – 434 p.
7. Landry C. *The Creative City: A Toolkit for Urban Innovators*. – London : Earthscan, 2000. – 300 p.
8. Throsby D. *Economics and Culture*. – Cambridge : Cambridge University Press, 2001. – 208 p.
9. ILOSTAT. *Country Profile: Uzbekistan*. – URL: <https://ilostat ilo.org/data/country-profiles/uzb/>.
10. World Bank. *Gender Data Portal: Uzbekistan*. – URL: <https://genderdata.worldbank.org/en/economies/uzbekistan>.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100